Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI BO'YICHA DAROMADLILIK EGRI CHIZIG'INI ANIQLASHNING FISKAL VA MONETAR SIYOSATNI MUVOFIQLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI

**Hakimov Hakimjon**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat qarzining optimal darajasini va davlat qimmatli qog'ozlarining daromadlilik egri chizig'ini aniqlashning soliq-budget va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishdagi ahamiyati o'rganiladi. Muallif davlat qarzi chegaralarini belgilashning nazariy va amaliy jihatlarini, jumladan, ularning iqtisodiyotning taraqqiyoti va barqarorligiga ta'sirini tahlil qiladi. Daromad egri chizig'ining davlat qarzi dinamikasiga va mamlakatdagi umumiyl makroiqtisodiy vaziyatga ta'siri ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat qarzi, qarzning optimal darajasi, daromadlilik egri chizig'i, davlat qimmatli qog'ozlari, siyosatni muvofiqlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlik.

**Abstract:** This article explores the importance of determining the optimal level of public debt and the yield curve of government securities in the coordination of fiscal and monetary policy. The author analyze the theoretical and practical aspects of determining the boundaries of public debt, including their impact on the stability and sustainability of the economy. The influence of the yield curve on the dynamics of public debt and on the overall macroeconomic situation in the country is considered.

**Key words:** public debt, optimal level of debt, yield curve, government securities, policy coordination, macroeconomic stability.

**Аннотация:** В данной статье исследуется значение определения оптимального уровня государственного долга и кривой доходности государственных ценных бумаг в координации фискальной и монетарной политики. Автор анализируют теоретические и практические аспекты определения границ государственного долга, включая их влияние на стабильность и устойчивость экономики. Рассматривается влияние кривой доходности на динамику государственного долга и на общую макроэкономическую ситуацию в стране.

**Ключевые слова:** государственный долг, оптимальный уровень долга, кривая доходности, государственные ценные бумаги, координация политик, макроэкономическая стабильность.

## KIRISH

Iqtisodiy dinamikaning doimiy o'zgarib turadigan dunyosida davlat qarzining maqbul darajasini aniqlash va davlat qimmatli qog'ozlarining daromadlilik egri chizig'ini boshqarish budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish jarayonida markaziy masalalarga aylanib bormoqda.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda davlat qarzi aksariyat mamlakatlar moliyaviy boshqaruvining ajralmas elementiga aylandi. Shu bilan birga, davlat qarzining maqbul darajasi masalasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u hozirgi makroiqtisodiy muhit, kelajakdagi iqtisodiy prognozlar, siyosiy iroda kabi bir qator omillarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, davlat qimmatli qog'ozlarining daromadlilik egri chizig'i davlatning qarz mablag'lari qiymatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va iqtisodiyotning umumiyl dinamikasiga ta'sir qiladi. Daromad egri chizig'ini tushunish va boshqarish ayniqsa, turg'unlik va iqtisodiy tebranishlar sharoitida dolzarb hisoblanadi.



## ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda davlat qarzlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri haqidagi munozaralar iqtisodchilar uchun qizg'in mavzularidan biri ekanligini hisobga olib, mazkur mavzuda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning ko'lami katta ekanligi tushunarli holatdir.

Iqtisodchilar Marta Gómez-Puig, Simón Sosvilla-Rivero va Inmaculada Martínez-Zarzoso (2022)larning "On the heterogeneous link between public debt and economic growth" nomli maqolasida qarz har bir mamlakatda iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qilishi 115 mamlakatning 1995-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davrdagi ma'lumotlari asosida o'rganib chiqilgan. Buning uchun mualliflar guruhlangan qat'iy ta'sir (The grouped fixed effect-GFE) baholovchisi deb ataladigan statistik usuldan foydalanib mamlakatlarni o'xshash belgilarga ko'ra guruhlarga bo'lgan. Shuningdek, ushbu o'zgarishga hissa qo'shadigan omillarni o'rganish uchun multinomial logit deb nomlangan statistik modeldan foydalanilgan. Guruhlangan qat'iy ta'sir (GFE) baholovchisi har bira qarz va o'sish o'tasida o'ziga xos munosabatlarga ega bo'lgan besh xil mamlakatlar guruhini aniqlagan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, qarzning o'sishga ta'siri muassasalar sifati, ishlab chiqarish xarajatlari nisbati, qarz darajasi va qarzni to'lash muddati kabi omillarga bog'liq<sup>[1]</sup>.

Iqtisodchilar M. Ayhan Kose, Franziska L. Ohnsorge, Carmen M. Reinhart va Kenneth S. Rogoff (2021) larning "The aftermath of debt surges" nomli tadqiqotida qarz yukini kamaytirish uchun ilgari qo'llanilgan keng qamrovli strategiyalarni o'rganadi.

Tadqiqotchilar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, fiskal tejamkorlik choralarini qo'llash, davlat aktivlarini sotish va boylikka soliq solish kabi an'anaviy yondashuvlarni, shuningdek, inflyatsiyaning o'sishiga yo'l qo'yish, foiz stavkalarini cheklovchi moliyaviy siyosatni amalga oshirish va qarzni o'zgartirish yoki undan kechish bo'yicha choralar ko'rish kabi muqobil yondashuvlarni o'rganadi.

Mualliflarning fikricha, ushbu variantlarning samaradorligi har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari va qarzning turiga qarab o'zgaradi. Biroq bu variantlarning barchasi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xarajatlar bilan bog'liqligini tan olish muhimdir. Ba'zi variantlar faqat kuch bilan amalga oshirilsa samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, hukumatlar qiyin paytlarda o'z siyosatlarini o'zgartirishi odatiy holdir.

Xulosa o'rnida, qarzni kamaytirish bilan bog'liq muammolar global boshqaruv, shu jumladan, rivojlangan iqtisodiyotlarning rivojlanayotgan bozor va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar (EMDEs)ga potensial iqtisodiy zarbalarga dosh berishga yordam berish darajasi to'g'risida kengroq savollar tug'diradi<sup>[2]</sup>.

Iqtisodchilar Andrea Berardi va Alberto Plazzi (2022)larning "Dissecting the yield curve: The international evidence" nomli maqolasida foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi turli omillarni tushunishga yordam beradigan matematik model ishlab chiqiladi. Ushbu model foiz stavkalarini uchta asosiy komponentga ajratadi: kutiylayotgan kelajakdagagi stavkalar, uzoq muddatli obligatsiyalarni ushlab turish uchun qo'shimcha kompensatsiya (muddatli mukofot) va daromadlilik egri chizig'ining egri chizig'idagi o'zgarishlarning ta'siri (qavariqlik muddati). Shuningdek, maqolada ushbu komponentlar bilan bog'liq real foiz stavkalari va inflyatsiya ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi. Model daromadlilik bilan bog'liq omillarni ham, makroiqtisodiy omillarni ham hisobga oladi va u bozorning umumiyligi o'zgaruvchanligida oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlar ehtimolini o'z ichiga oladi.

Model AQSh, Yevrozona, Buyuk Britaniya va Yaponiyaning daromadlilik egri chizig'iga qo'llanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yigirma yil ichida qisqa muddatli foiz stavkalarini bo'yicha kutishlar doimiy ravishda kamaydi va umumiyligi daromadlilik harakatlari eng muhim ta'sir ko'rsatdi. Investorlarga uzoq muddatli obligatsiyalarga ega bo'lishlari uchun kompensatsiya beradigan mukofot atamasi obligatsiyalarning muddati uzaygan sari ortadi, ammo oldindi tadqiqotlar bilan solishtirganda daromadlilik prognozlaridagi o'zgarishlarning kichikroq qismini tushuntiradi.

Ushbu mamlakatlar o'tasidagi daromadlilikning birgalikda harakatlanishini tahlil qilganda, Amerika Qo'shma Shtatlarida paydo bo'lgan zarbalar global miqyosda uzoq muddatli foiz stavkalariga eng kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Boshqa tomondan, Yaponiya bozori boshqa mamlakatlardan kelib chiqadigan zarbalarga ayniqsa, sezgir ekangligi aniqlangan<sup>[3]</sup>.

Iqtisodchilar Emanuel Moench va Soroosh Soofi-Siavash (2022) larning "What moves treasury yields?" nomli maqolasida daromadlilik yangiliklari shoki G'aznachilik daromadiga darhol ta'sir qilmaydigan, ammo ularning kelajakdagagi o'zgarishlariaga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan yangilik sifatida aniqlaydilar.

Dastlab, yangiliklari shoki sodir bo'lganda, muddatli mukofotlar va kutilgan qisqa stavkalar bir-birini qoplaydi, natijada daromadlilikka darhol javob berilmaydi.

Muddatli to'lovlarga ta'sir tezda yo'qolsada, kutilgan qisqa stavkalar va shu tariqa daromadlilik vaqt o'tishi bilan doimiy ravishda pasayadi. Natijada, shok G'aznachilik daromadining bir necha yil ichida sezilarli 50% o'zgarishini tashkil qiladi.

Ijobiy daromadlilik yangiliklari shoki mavjud bo'lganda, u qimmatli qog'ozlar va obligatsiyalar bozori o'zgaruvchanligining tasodifiy keskin o'sishi bilan birga keladi va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar ham bir vaqtning o'zida javob beradi. Keyinchalik, Federal rezerv tomonidan moslashtirilgan real iqtisodiy faoliyat va inflyatsiyaning doimiy pasayishi bilan birga keladi.



Qimmatli qog'ozlar bozorining haqiqiy o'zgaruvchanligi va biznes sikli haqidagi yangiliklar bilan bog'liq shoklarni o'rganib chiqib, mualliflar shunga o'xshash javob shakllarini aniqlaydilar va daromadlilik yangiliklari shokidan kelib chiqqan o'zgarishlarni izohlaydilar<sup>[4]</sup>.

Umumiyl olib aytganda, davlat qarzi va uning eng yuqori chegarasini o'rnatish masalasi ko'plab xorijiy ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Ularning ilmiy xulosalarini O'zbekiston davlat qarzi bo'yicha siyosatiga nisbatan qo'llash imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, davlat ichki qarzlari borasida fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor ochiq bozordagi operatsiyalari bo'yicha bozor stavkalarini shakllantirishga qaratiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilik egri chizig'ini izohlovchi asosiy sabablar tahlil va taqqoslash metodlari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish va axborot sintezi usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, maqolada modellashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va empirik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Inqiroz sharoitida budget daromadlari keskin tushib ketadi, xarajatlar esa oshib boradi, bunday sharoitda davlat budgetining taqchilligi kengayishi tabiiy hisoblanadi. Biroq budget taqchilligini to'g'ri moliyalashtirish iqtisodiy siyosatning keyingi ustuvorliklarini belgilab beradi. O'zbekistonda ushbu vosita sifatida bu jarayonga tashqi qarzlarni jalb etish belgilanganligi monetar va fiskal siyosat idoralari o'tasida muvofiqlashtirish mexanizmi sifatida eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Endigi asosiy masala esa davlat qarzlarning keyingi iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan optimal darajasini aniqlash hisoblanadi.

Qarz, tabiatan, ikki tomonlama xususiyatga ega. U bir tomonidan joriy davrda iste'mol oshishiga yordam bersa, boshqa tomondan kelgusi davr uchun qilinadigan iste'molni cheklashga majbur qiladi. Ya'ni qaysi tomonidan qarashga ko'ra, qarzning ijobjiy va salbiy tomonlari mavjud. Demak, qarz miqdori ma'lum darajaga ijobjiy, bu darajadan yuqorida esa salbiy ta'sirga ega. Qarzdan maksimal samara chiqara olish uchun qarzning ijobjiy va salbiy ta'siri o'tasidagi optimal chegarani topish muhim vazifa hisoblanadi.

Davlat qarzlari o'z navbatida, davlat xarajatlarining daromadlardan ortgan qismini qoplash uchun olingan ssuda va to'lovlar hamda davlat rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan (hamda Moliya vazirligi tomonidan qayta kreditlanadigan) qarz mablag'larining umumiy hajmi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari asosida O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan jalb qilinadigan qarz mablag'ları ham, ular Hukumat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri jalb qilinmasa-da, (shu jumladan, davlat budgetida aks ettirilmasa-da), O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi hisoblanadi.

Har bir davlat o'z aholisi hayot darajasini yaxshilash, iqtisodiyotning bir maromda ishslashini ta'minlash uchun qarz oladi. Odatda, iqtisodchilar tomonidan ushbu qarzlar darajasining haddan tashqari oshib ketishi, mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini cheklashini aytib o'tishadi. Biroq shunga qaramasdan iqtisodchilar orasida davlat qarzlarining samarasini uning zararlaridan kattaroq degan fikrdagilar ham bor. Ushbu bahs-munozaralar anchadan buyon davom etib kelmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olib, mamlakatda davlat qarzlari darajasining haddan tashqari oshib ketishi orqali iqtisodiyotdagagi o'sish sur'atlarini pasaytirishning oldini olish va shu vaqtning o'zida turli cheklovlar orqali davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tashabbuslari samaradorligini pasaytirmaslik uchun davlat qarzlari bo'yicha optimal cheklov darajasini aniqlab olish hamda ushbu cheklovlarni og'riqsiz, bosqichma-bosqich o'rnatish hozirgi kundagi o'ta muhim vazifalardan hisoblanadi.

Davlatning mamlakat iqtisodiyotini tartibga solishga mo'ljalangan pul-kredit siyosatining eng muhim instrumentlaridan biri – Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu operatsiyalarning qay darajada muvaffaqiyatlari amalga oshirilayotganligini baholash uchun turli mexanizmlardan foydalaniladi. Ushbu mexanizmlardan biri – qimmatli qog'ozlar daromadlilik egri chizig'i hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarni ichki va tashqi bozorlarda sotuvga chiqarish va ularni sotib olish orqali mamlakat o'zining pul-kredit siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bank tomonidan qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning daromad keltirish darajasi unga bo'lgan talab va taklif natijasida shakllanadi. Ushbu daromadlilik darajasining o'zgarishi orqali xalqaro investorlar mamlakatning hoziri va kelgusi ahvoli haqida xulosa chiqarish imkoniga ega bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlilik egri chizig'i – qimmatli qog'ozning to'lab berish muddati va uning daromadlilik foiz stavkasi o'tasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi egri chiziq hisoblanadi. Ushbu egri chiziq, odatda, likvidlilikni afzal ko'rish nazariyasiga asosan, tepaga yo'nalgan bo'ladi. Ya'ni qimmatli qog'ozning to'lab berish muddati oshgani sari uning daromadlilik darajasi ham oshib boradi.



Qimmatli qog'ozlarning daromadlilik egri chizig'i xorij mamlakatlarda fond bozorining holati, shu bilan bir qatorda iqtisodiyotning holatiga baho berish uchun keng qo'llaniladi. Ushbu egri chiziqni hisoblashning bir necha xil metodlari bor ekanligi yuqorida qayd etilgan edi. Jahon mamlakatlari Markaziy banklari daromadlilik egri chizig'ini hisoblashda turli usullarni qo'llashadi.

**1-jadval:** Turli davlatlar Markaziy banklari tomonidan daromadlilik egri chizig'ini hisoblashda ishlatajigan modellar<sup>[5]</sup>

Markaziy bank	Model
Belgiya	Nelson-Siegel, Svensson
Kanada	Svensson
AQSh	Fisher-Nychka-Zervos (Spline)
Finlandiya	Nelson-Siegel
Fransiya	Nelson-Siegel, Svensson
Germaniya	Svensson
Italiya	Nelson-Siegel
Yaponiya	Fisher-Nychka-Zervos (Spline)
Norvegiya	Svensson
Ispaniya	Svensson
Buyuk Britaniya	Anderson and Sleath (Spline) (2001-yilgacha Svensson)
Shvesiya	Fisher-Nychka-Zervos (Spline), oldin Svensson
Shvedsariya	Svensson
Yel	Svensson

Ko'rinib turibdiki, Yevropa davlatlari asosan Svensson modelidan foydalanishar ekan. AQSh, Yaponiya, Shvedsiya kabi davlatlar Markaziy banklari hozirda splaynlar orqali Fisher-Nichka-Zervos modelidan foydalanishadi.

Buyuk Britaniyada esa, splaynlar orqali hisoblashning boshqacha usuli Anderson va Sleath tomonidan taklif qilingan usuldan foydalaniladi. Ayrim davlatlar esa, nisbatan oddiyroq bo'lgan Nelson-Siegel metodini ham qo'llashmoqda.

Daromadlilik egri chizig'ini hisoblashning yana bir o'ziga xosligi uning iqtisodiy inqirozlarni aniq bashorat qilish imkonini berishi hisoblanadi. Ya'ni har safar AQSh iqtisodiyotida daromadlilik egri chizig'ining teskari (inversiya) holatiga o'tishi inqiroz oldidan ro'y bergan.

AQShda qimmatli qog'ozlar daromadliliği egri chizig'ining teskari (inversiya) holati har doim inqirozni boshlab kelgan. So'ngi marta bunday holat 2019-yil may oyida kuzatildi. Bu esa, iqtisodchilarining yaqin vaqtlar ichida yana bir inqiroz bo'lishi mumkinligi borasida tashvishlanishiga sabab bo'lgan.

**2-jadval:** AQSh qimmatli qog'ozlar daromadliliği egri chizig'i va inqirozlar o'rtaqidagi bog'liqlik<sup>[6]</sup>

Hodisa	Inversiya boshlangan sana	Retsessiya boshlangan sana	Inversiyadan retsessiyaga qadar vaqt	Inversiya davomiyligi	NBER Retsessiyani e'lon qilgunga qadar bo'lgan vaqt	Disinversiyadan tortib turg'unlikka qadar vaqt	Retsessiyaning davomiyligi	NBER Retsessiyani e'lon qilgunga qadar vaqt
			Oylar	Oylar	Oylar	Oylar	Oylar	Oylar
1970 yildagi tanazzul	Dek-68	Yanv- 70	13	15	NA	8	11	NA
1974 yil tanazzuli	Iyun-73	Dek-73	6	18	NA	3	16	NA
1980 y	Noya-78	Fev-80	15	18	4	2	6	12
1981–1982 yillardagi tanazzul	Okt-80	Avg-81	10	12	5	13	16	8
1990-yil retsessiyasi	Iyun-89	Avg-90	14	7	8	14	8	21
2001-yil tanazzuli	Iyul-00	Apr -01	9	7	7	9	8	20



2008–2009-yillardagi tanazzul	Avg-06	Yanv-08	17	10	11	24	18	15
2019-noaniq	19-may	Noaniq	Noaniq	5	Noaniq	Noaniq	Noaniq	Noaniq
1969-yildan beri o'rtacha			12	12	7	10	12	15

O'rta hisobda inversiyadan inqirozgacha bo'lgan davr 12 oyni tashkil etadi. Inqiroz boshlangach, NBER (National Bureau of Economic Research) rasman inqiroz boshlanganini e'lon qilguniga qadar 7 oy vaqt o'tar ekan. Oldingi marta egri chiziq teskari holatga o'tgani 2007-yilda kuzatilgani e'tiborga molik.

Yuqoridagi ma'lumotlarning garfik ko'rinishiga e'tibor bersak, bu taxminlar yanada aniqroq ko'rindi. Har safar egri chiziqning pastga tushishi inqiroz (quyida) bilan birga kelgan. Shu bilan birga 2019-yilda qimmatli qog'ozlar egri chizig'inining tobora pastlab borganligini ko'rish mumkin.



1-rasm: AQSh qimmatli qog'ozlar daromadliligi egri chizig'i va inqiroz (quyida – inqirozlar)


Manba: fred.stlouisfed.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Shu bilan birga, oldingi marta daromadlilik chizig'i teskari bo'lganda (2007-yilda) jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuzaga kelgani hammaning yodida turibdi.

Taassufki, 2020-yilda COVID-19 infeksiyasi avj olishi ortidan boshlangan global inqiroz (Buyuk yopilish) AQSh G'aznachiligi qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilik darajasini 2020-yil mart oyida deyarli manfiy qilib qo'ydi.

Shu bilan birga, jahondagi geosiyosiy keskinliklar 2022-yildan keyingi davrda ham AQSh G'aznachiligi qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilik darajasini manfiy bo'lismiga sabab bo'lmoqda.

AQSh davlat qarzini doimo (ayniqsa, iqtisodiy inqiroz paytlarida) milliy valyutasi (dollar)da kam foiz stavkalarida jaib qila oladi. Bunga asosiy sabablardan biri AQSh iqtisodiyotiga ishonchning balandligi va AQSh tarixda biror marotaba defolt e'lon qilmagani bilan bog'liq.



2-rasm: Yevropa Ittifoqida qimmatli qog'ozlar daromadliligi egri chizig'i

Manba: data.europa.eu sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Disclaimer



Yevropa Ittifoqida daromadlilik egri chizig'i normal holatda bo'lsa-da, bu yerda daromad olish darajasi 20 yilgacha bo'lgan muddatda 0 foizdan pastroq darajaga tushib ketgan. Bu Yel dagi inflatsiya darajasiga nisbatan investor ushbu qimmatli qog'ozlardan daromad ololmasligini anglatadi.

Umumiy olib aytganda, qimmatli qog'ozlar daromadliliqi egri chizig'i iqtisodiyotning hozirgi va kelajakdagidagi holatini baholash imkonini yaratib beruvchi ko'rsatkich hisoblanib, uni to'g'ri hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida davlat budjeti taqchilligi va davlat qarzlarini boshqarishda budjet va monetar qoidalaridan foydalanish muayyan afzalliklarga ega ekanligi oydinlashdi. Shu bilan birga, davlat qarzlar bo'yicha chekllovchi qoidalarni o'rnatish hamda davlat qarzini boshqarishda tashqi qarzlar bilan birga davlat ichki qarzalarini ham tartibga solish bo'yicha davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilik egri chizig'ini shakllantirish mexanizmlaridan foydalanish samarali ekanligi xorijiy tajribalar orqali asoslandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirishda davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilik egri chizig'idan foydalanish borasida quyidagilarni taklif etamiz:

- davlat qarzini optimal darajasini aniqlash uchun aniq me'yorlar ishlab chiqish. Bu me'yorlar iqtisodiyotning turli sharoitlarida, jumladan, inqiroz va barqarorlik davrlarida qarz miqdorini boshqarishda yo'il-yo'riq vazifasini bajaradi;
- davlat qimmatli qog'ozlari bozori ustidan samarali nazoratni amalga oshirish. Bu iqtisodiyotning umumiyligi barqarorligi uchun muhimdir;
- daromadlilik egri chizig'ini doimiy ravishda kuzatib borish va uning o'zgarishlarini iqtisodiyotdagi asosiy o'zgarishlar va trendlar bilan bog'liq holda tahlil qilish;
- xalqaro tajribalarni chuqr o'rganish va ularning eng yaxshi amaliyotlarini milliy sharoitlar va ehtiyoj-larga moslashtirish;
- davlat qarzi va qimmatli qog'ozlar bozori haqida keng ko'lamma ma'lumot berish va tushuntirish das-turlarini amalga oshirish. Bu iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi va jamoatchilikning iqtisodiy jarayonlarga bo'lgan tushunchasini oshiradi.

## XULOSA

Davlat qarzining boshqaruvi va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlilik egri chizig'ining tahlili milliy iqtisodiyotning barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar doimiy tahlil va muvofiqlashtirishni talab etadi va ularning samaradorligi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Marta Gómez-Puig, Simón Sosvilla-Rivero and Inmaculada Martínez-Zarzoso.,—2022. On the heterogeneous link between public debt and economic growth. Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, Volume 77, <https://doi.org/10.1016/j.intfin.2022.101528>.
2. M. Ayhan Kose, Franziska L. Ohnsorge, Carmen M. Reinhart and Kenneth S. Rogoff., 2021. The aftermath of debt surges. A NBER Working Paper No. 29266. <https://doi.org/10.3386/w29266>.
3. Andrea Berardi and Alberto Pizzati., 2022. Dissecting the yield curve: The international evidence. Journal of Banking & Finance, Volume 134, <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2021.106286>.
4. Emanuel Moench and Soroosh Soofi-Siavash., 2022. What moves treasury yields?. Journal of Financial Economics, Volume 146, Issue 3, Pages 1016-1043, <https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2022.04.001>.
5. Aljinović, Zdravka, Tea Poklepović, and Kristina Katalinić. (2012). Best fit model for yield curve estimation. Croatian Operational Research Review, 3(1).—28-40.
6. Irwin, Neil. (2019). The Bond Market Is Giving Ominous Warnings About the Global Economy.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

